



BUYUK ADIBLARIMIZNING ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIYAT TUSHUNCHALARINING MOHIYATI VA ULARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Ahmadjonova Shaxnozaxon Rustamjon qizi

*Farg'ona davlat universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi"
yo'nalishi talabasi*

akmadjonovashahnozaxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy, Imom Buxoriy va G'azzoliyning ma'naviy merosida adolat va ma'naviyat tushunchalarining mohiyati, adolatli jamiyat barpo qilish taktikalari va insonlarni ma'naviy barkamol shaxs bo'lishida zarur bo'lgan ezgu fazilatlar haqida bayon qilinadi

Kalit so'zlar. Adolat, ma'navoyat, barkamol shaxs, adolatli jamiyat, ma'naviy ong, diniy va dunyoviy dunyoqarash

Adolat va ma'naviyat tushunchalarining mazmun-mohiyatini anglashda buyuk adiblarimizning fikr-mulohazalari hamda bizga qoldirgan qimmatli qo'lyozmalri muhim ahamiyatga ega. Masalan, g'azal mulkining sultoni, turk va fors adabiyotining qiroli hisoblangan Alisher Navoiy adolat va ma'naviyat tushunchalarning mohiyati haqida o'z asarlarida bir qancha fikrlarni ta'kidlab o'tgan. Navoiy adabiyotining asosiy g'oyalari adolat, insoniyatni yaxshi ishlarga undash va axloqiy qadriyatlarni saqlashga qaratilgan. U o'zining "Xamsa" asarida adolatni jamiyatning mustahkam poydevori sifatida ta'riflaydi. Adolat, uning fikricha, shaxslarning insoniy qadriyatlarini saqlash va boshqalarga nisbatan hurmat ko'rsatish orqali jamiyatda ma'naviy totuvlikni ta'minlaydi. Alisher Navoiy "Hayrat ul-Abror" dostonida "Kimki haqiqatni yolg'ondan, to'g'rini noto'g'ridan ajrata bilsa, u o'z adli bilan G'arb va Sharqni yoritgan bo'ladi" degan qimmatli fikrlarni ham keltirib o'tgan, bu esa, adolat nuri insoniyatni saodat tomon chorlashidan darak beradi.

Yana bir buyuk allomamiz Imom al-Buxoriy ham o'zining hadislarini orqali adolatning muhimligini aytib o'tgan Uning fikricha, adolat nafaqat hukumatning, balki har bir insonning axloqiy mas'uliyati bo'lib, har bir kishi o'z vazifasini ado etishda adolatli bo'lishi kerak. Ma'naviyat esa, uning nuqtai nazarida, ruhiy poklik va ixlosdan kelib chiqadi, bu esa jamiyatda adolatning ta'minlanishiga yordam beradi. Imom Buxoriyning "Sahih al-Buxoriy" asarida adolat haqida ko'plab hadislar mavjud bo'lib, ushbu hadislar, asosan, adolatning insonlar o'rtasidagi munosabatlarga, hokimiyat, ijtimoiy tartib va diniy hayotdagi ahamiyatiga e'tibor qaratadi. Quyidagi hadislar adolat haqida keltirilgan muhim misollardan biridir: Rasululloh (s.a.v.) aytganlar: "Adolatli hokim — Qiyomat kuni Allohning najot topganlaridan bo'ladi". Bu hadisda, adolatli hokimiyatning ahamiyati va uning Qiyomatdagi holati ta'kidlanadi. Rasululloh (s.a.v.)

aytganlar: "Adolat, dunyo va oxiratning asosidir". Bu hadis, adolatning insonlarning dunyodagi va oxiradagi baxti uchun juda muhim ekanligini ifodalaydi va ikki dunyo saodatiga erishishni istagan kishilarga bu dunyoda odamlar orasida adolat tarozisini to'g'ri o'lchaydigan bo'lishlari, halol yashashlari kerakligini o'rgatadi. Rasululloh (s.a.v.) yana bir hadisi sharifda shunday deganlar: "Sizlardan har biringiz mas'uliyatga ega va har bir mas'uliyat ostida adolatni amalga oshirishingiz kerak". Ushbu hadisda, kasbiy is jarayonida, ijtimoiy munosabatlarda, va oiladagi tartib-qodalarda ham adolat muhimligi ta'kidlanadi.⁷ Rasululloh (s.a.v.) aytganlar: "Sizlardan kimdir boshqalarga adolatli bo'lsa, albatta, ular o'z xatolarini ko'rib, yaxshilanishga harakat qilishadi". Bu hadisda, adolatni o'rnatish va unga amal qilish, boshqalarning kamchiliklarini yaxshilashga olib kelishini ko'rsatadi. Buxoriy hadislarida adolat nafaqat hokimiyat yoki jamiyatda, balki har bir insonning shaxsiy hayotida, o'zaro munosabatlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Adolatni o'rnatish orqali jamiyatda tinchlik va barqarorlik ta'minlanadi, deb ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, islomiy falsafa va axloqda katta o'rin tutgan mutafakkir sifatida, adolat va ma'naviyat o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur o'rgangan. buyuk shaxslardan biri bo'lmish G'azzoliyning fikriga ko'ra, adolat nafaqat ijtimoiy tartibni saqlash uchun, balki shaxsiy ma'naviy o'sish uchun ham zarurdir. G'azzoliy adolatni shaxsning o'zini to'g'ri va haqqoniy yo'lga yo'naltirishi deb ta'riflaydi. Uning nazarida, adolat faqat tashqi qonunlar bilan emas, balki insonning ichki dunyosida ham mavjud bo'lishi kerak. Shaxs o'z ichki olamida halol, to'g'ri va samimiy bo'lishi, shu bilan birga, jamiyatda ham adolatli va mas'uliyatli bo'lishi lozim. G'azzoliy ma'naviyatni adolatning asosiy ildizi sifatida ko'radi va odamning ruhiy o'sishi, uning to'g'ri yashashga bo'lgan ishtiyoqini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Abu Hamid al-G'azzoliy — Islom olamining mashhur mutafakkiri va faylasufi, ayniqsa, uning diniy-falsafiy asarlari bilan tanilgan olim sifatida uning adoat haqidagi fikrlarini asarlarida, ayniqsa, "Ihyo Ulumid-Din" (Dinni o'rgatish san'ati) asarida topish mumkin. G'azzoliy bu asarda adoatni insonning ichki va tashqi dunyosidagi etika va axloqiy qoidalarga rioya qilish, diniy hayotda muhim o'rin tutadi deb hisoblagan. Uning asarlarida adolat quyidagi jihatlarga qaratilgan: Ichki odob (niyat va qalb). G'azzoliy, odobni faqat tashqi qoidalar bilan cheklamagan, balki inson qalbi ichidagi niyatlar ham katta ahamiyatga ega ekanini ta'kidlagan. U, masalan, ibodatlarni faqat tashqi ravishda bajarmasdan, ularda samimiy niyat, Allohga bo'lgan sadoqatni ham muhim deb bilgan. Ijtimoiy odob va jamiyatdagi muomala. G'azzoliy, jamiyatda insonlar o'rtasidagi munosabatlarda ham odobga katta e'tibor qaratgan. U, odamlar o'rtasida hurmat, samimiyat, adolat va boshqalarga nisbatan muloyimlikni yuqori qadriyat deb hisoblagan, keyingisi Allohga bo'lgan aloqaning tartibi. G'azzoliy, ibodatlar va Allohga bo'lgan aloqada tartib va odobni, masalan, salah (namoz) va zikrda muhim hisoblagan. Har bir harakatning maqsadi va tartibi bo'lishi kerak, va bu tartibga rioya qilish Allohning huzuriga yetishish uchun zarurdir deya ta'kidlaydi. G'azzoliy, odobni faqat diniy amallarda mavjud bo'libgina



qolmay, insonning kundalik hayotida, masalan, ovqatlanish, kiyinish, suhbatlashish va boshqa odatlarda ham amal qilishni muhim deb bilgan. G'azzoliyning fikriga ko'ra, adoat diniy amallarni faqat tashqi jihatlarda bajarish emas, balki ular ichki samimiyat bilan to'ldirilgan, insonning qalbida to'g'ri niyat va intilish bo'lishi kerak. Bu orqali inson o'zining ruhiy kamolotiga erishadi va Allohga yaqinlashadi degan aqidalarni ilgari surgan.

Xulosa qilib aytganda, adolat va ma'naviyat tushunchalarining asl mohiyatini ochib berishda o'zbek xalqining buyuk adiblari ma'naviy meros durdonalari muhim ahamiyatga ega hisolanadi. Ularning asarlari ma'naviy dunyoqarashimizni yuksaltirishimizda va barkamol shaxs sifatlariga ega bo'lishimizda asosiy manbaa bo'lib xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Hamid al-G'azzoliy. "Ihyo Ulumid-Din" Sharq. Samarqand. 2010.199-bet 1
2. Imom Buxoriy. "Sahih-al-Bixoriy. "Kitab al-Ahkam" Movarounnahr. Samarqand.2011. B-78-86.
3. A.Navoiy. "Hayrat ul-Abror" Adabiyot o'quv qo'llanma. Toshkent.2022. 43-bet

